



ADABIY ERTAKLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI (XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING ADABIY ERTAKLARI MISOLIDA)

Rizvon Saidova

JDPU doktoranti

Telegram, tel:90 539-15-91.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431892>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-December 2023 yil

Ma'qullandi: 23- December 2023 yil

Nashr qilindi: 26- December 2023 yil

KEY WORDS

adabiy ertak, xalqchilik, milliylik, milliy tarbiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada bolalar adabiyotining sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning adabiy ertaklarida ifodalangan xalqchilik, milliylik masalasiga e'tibor qaratilgan hamda adib adabiy ertaklarining milliy tarbiya tizimida tutgan o'rni ochib berilgan.

Eng qadimgi epik janrlardan biri ertaklardir. Folklorning ajralmas bo'lagi bo'lgan bu janr asosida yaratilgan adabiy ertaklar bugungi kunda bolalar adabiyoti hamda pedagogik tarbiya tizimining rivojiga hissa qo'shmoqda. Hozirgi vaqtda adiblar tomonidan yaratilayotgan ertaklarda zamonaviy mavzular ilmiy texnika tizimiga oid muvaffaqiyatlar, jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati, tadbirkorlikning foydasi kabilar keng ko'lamda talqin etilmoqda. Bu mavzular ilgari surilgan adabiy ertaklarga xalqchilik va milliylik an'analarining singdirilishi asarning ta'sir kuchini oshiradi. Adabiy ertaklarda ma'lum xalqning urf-odatlarini, o'dob-ahloqi, ota-bobolarning hikmatli so'zlari, kishilar dunyoqarashining aks ettirilishi dunyo xalqlari bolalarini o'zaro ma'naviy jihatdan yaqinlashtiradi. Bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyev ham xalqimizning o'ziga xos sifatlarini roman, qissa, hikoya hamda adabiy ertaklarida turli vosita va obrazlar orqali ifodalab, dunyo xalqlari havas bilan qaraydigan qadryatlarimizni o'z asarlarida tarannum etib kelmoqda.

Adabiy ertaklarning paydo bo'lishi va taraqqiy etib borishini yangi davr, yangi zamon kishilarining ma'naviy ehtiyoji, yangicha estetik tafakkuri bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Ulug' adabiy tanqidchi V.G.Belinskiy ta'kidlaganidek, har bir davrning o'z g'oyasi va shunga mos ifodaviy shakli mavjud bo'ladi ya'ni har bir davr o'z mazmun va shakl birligiga egadir.[1,10]

Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqda. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz

tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularniyangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.[2,17]

Bu borada Xudoyberdi To'xtaboyev adabiy ertaklarini bolalar ongiga singdirib borishning ahamiyati katta. Chunki adib ertaklarida ilgari surilgan mavzu va g'oya ham zamonaviy ham milliy ruhning singdirilishi bolalarni milliy tarbiya tizimida tarbiyalashga hamda zamonaviy yoshlar sifatida kamol toptirishda yaxshigina ko'makdosh.

Bilamizki, ma'lum yozuvchi tomonidan xalq ertaklari asosida yaratilgan asar adabiy ertak deyiladi. Yozuvchi adabiy ertakni yaratishda o'z oldiga qo'ygan maqsadga mos bo'lgan xalq ertagini tanlab oladi va unda aks ettirilgan voqea hodisalarni qayta ishlab, o'zi yashab turgan davr talabi asosida yangi asar ijod etadi.

Rus adabiyotida A. S. Pushkinning qator adabiy ertaklari boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan. Masalan, rus xalq folklori to'plovchilaridan biri V. Dalning hikoya qilib bergan syujeti asosida "Baliqchi ham baliq haqida ertak", "Sehrli ko'zgu"ertagi asosida "O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak" o'zbek adabiyotida esa "Susambil"ertagi asosida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Quvg'indagi hayvonlar"ertagi yotganini ko'ramiz. Bundan tashqari adib "Ota tarbiyasi haqida", "Ona allasi" kabi rivoyatlarini ijodiy laboratoriyasida ishlab, sayqallab, yanada o'qimishli, ta'sirli qilib ijtimoiy hayotimiz bilan bog'liq holda yaratgan. Bu Xudoyberdi To'xtaboyevning xalq og'zaki ijodi janrlaridan unumli foydalanib ularga yangicha mazmun berganligini o'ziga xos g'oya vaqarashlari folklordagi syujetlardan bir ifoda vositasida foydalangan holda milliylik va xalqchilik asosida talqin etilganligini ko'ramiz.

Adibning barcha asarlarida milliylik, xalqchilik an'analari yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqchilik deganda biror xalq, biror mamlakat odamlarining xulq-atvorini, urf-odatlarini va xarakteri xususiyatlarini haqqoniy tasvirlashni tushunadigan bo'lsak, xalqchilik chinakam badiiy asarning zarur shartidir.[3,62]Jumladan, "Osmondan muzqaymoq yoqqan kun" ertagi qahramoni Hafizaxonda xalqimizga xos bo'lgan rahmdillik, mehnatkashlik, sofdillik, sahiylik fazilatlarini mujassam.Ayni paytda ertak syujetini harakatlantiruvchi bu obraz ortida o'sib kelayotgan yosh avlodimizning qiyofasi yashirin.

Ajdodlarimiz: "Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor" deganlaridek, qadimdan ota-bobolarimizning o'zbek bolasining qanday kishi bo'lishi va qanday bo'lmasligi kerakligi haqida ibrat va o'rnaklar jamlangan tarbiyaviy merosi bor.[4,139] Muallif Hafizaxonning na'munali xulq-atvori, o'y-hayollarini yuksak badiiy saviyada aks ettiradi. U, avvalo, ko'ngli toza qiz edi. Pok niyatli, yaxshi xulqli bo'lganligi uchun ham uning yoniga sehergar momo keladi. Daladagi ba'zi odamlar o'zlarini salqinga urgan, issiq kunda o'zini xuddi qizdirilgan tandirning ichida o'tirgandek his qilayotgan qizcha mashaqqatli ahvolda bo'lishigaqaramay, yonginasida piyoz o'tayotgan ukasiga achinib, uni salqinga chiqarib yuboradi. O'zi esa ishlarini tugatgach dam oladi. Hafizaxonning mehnatkashligini momo muzqaymoqlar bilan mukofotlaydi.Hafizaxonga osmondan tinmay muzqaymoqlar yog'ilib turadi.Qizcha esa qishloqning barcha bolalarini, qizlarini muzqaymoqqa to'ydiradi. Hafizaxonning o'rtoqlari esa:

...Tinmay saxiy, saxovatli dugonalarini maqtarmish. Hatto bittasi: "Hafizaxon, Xudo xohlarsa, to'yingda tong otguncha childirma chalib, hammani o'ynataman", deb muzqaymoq yuqi lablari bilan betlaridan cho'lpillatib o'pib-o'pib olibdi.[5,62]

Hafizaxon hadya qilgan bir chelak muzqaymoqni olib, "ha mayli nabiralarimga

berarman” deydi melitsioner amaki. Uning bu gaplarida iliq mehr haroratini his etamiz. O’zi yemay yedirish, ichmay ichirish, har qadamda farzandlari-yu nabiralari o’ylash, otabobolarimizga xos azaliy fazilatlaridan biri. Hafizaxonga xos mehribonlik, militsioner amakiga xos insofilik, adolatlilik, va boshqa bolalarva qizlarga xos birlk, ahillik ertakning xalqchilligini ko’rsatadi.

Xalqimiz xayotiga xos fazilatlar talantli yozuvchi adabiy ertaklarining syujet va kompozitsiyasi, til va obrazi tarkibiga singib ketgan. Ertakda ijodkor xalqimizga xos milliylikni quyidagicha aks ettiradi: ...Hafizaxon demak tushim emas, o’ngim ekan, deb o’zida yo’q sevinib, g’ildirakli aravachasini uchirib, narigi paykallarda sabzi, piyoz o’tayotgan o’rtoqlarining oldiga jo’nabdi. O’rtoqlari isib ketgani uchun ishni to’xtatib, katta tollarning soyasida salqinlashib, bir-birining qoshiga o’smalar qo’yishib, bir-birining biqinidan chimdalashib, qiqrilashib kulishib dam olishayotgan ekan. [6,62]

Yuqoridagi parchada bir-birlarining qoshlariga o’smalar qo’yishi yana chimdalashib qiqrilashib kulishi, hammalari kelishib birgakilda dalada mehnat qilishi, sho’x o’zbek qizlarining tasvirlangani ertakka o’ziga xos milliy kalorit kiritadi.

Xalqning hayoti bilan chambarchas bog’langan adabiyot uning o’ziga xos urf-odatlarini, psixikasini, turmush va yashash tarzini yorqin aks ettiradi. Har bir xalqning o’ziga xos bo’lgan ana shunday xususiyatlarini aks ettirish adabiyotning milliyligini vujudga keltiradi. [7,65]

Ertakda mehnatkash xalqimizning dalalarda sabzi, piyozlarni hashar qilib o’tayotgan qizlar tasvirlanar ekan, bir jihatdan yozuvchi millatimizga xos ahillikka ishora qilgan bo’lsa halol mehnat qilib, hunar o’rgangan kishi rohat topishini “Mehnatim beminnat nonim” ertagida ta’kidlaydi. Bu ertakda uch tadbirkor yigitlar yetishtirgan mahsulotlarini ozmi-ko’pmi qishloq ahliga berib, o’z hunarlari bilan ularni “Tilab ichuvchi bo’lma, sog’ib ichuvchi bo’l” [8,67] deya tadbirkorlikka o’rgatadi. Natijada yurtda baliqchilik, chorvachilik, bog’dorchilik rivojlanib, odamlar ma’murchilikda yashay boshlaydi.

Azaldan tadbirkorlik bilan shuhrat topgan O’zbekiston diyorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “... kelgusi besh yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari sonini 3 barobar ko’paytirish orqali aholi daromadlarini oshirishni muhim vazifa qilib qo’ymoqdamiz” deya ta’kidlagan edilar.

Xudoyberdi To’xtaboyevning tadbirkor yigitlari kichik kitobxonlarga bevosita tadbirkorlikning voydali jihatlarini yoritib beradi va bolalarni hunar egallash vaqtni unumli ishlarga sarflash zarurligini uqtiradi. Bir hunarni egallab butun mamlakat rivojiga hissa qo’shish mumkinligini o’quvchilarga uqtiradi. Yurtboshimizning yoshlardan kutayotgan maqsadlarni shu kabi adabiy ertaklari asosida bolalar ko’ngliga joylaydi.

Adabiy ertaklarda aks ettirilgan voqealarni ijodkor o’zi yashab turgan davr asosida ijod etar ekan bolalarni davr talabiga javob beradigan salohiyatli etib tarbiyalashga o’z hissasini qo’shgan bo’ladi. Ertaklarda milliylikni saqlab qolgan adib millat bolalarini milliy tarbiya tizimida tarbiyalaydi.

“Milliy tarbiya tizimi-bu har bir xalqning o’ziga xos mentaliteti, fe’l-atvori, ahloq odob qoidalari va milliy g’oya tamoyillariga asoslangan pedagogik jarayondir. Milliy tarbiya har bir xalqda, shu jumladan, o’zbek xalqida azaldan shakllanib, sayqal topib kelgan. Chunki har bir xalqning tarixi – o’sha xalq qadryatlariga asoslangan milliy tarbiya tarixi hamdir” [9,126]

Xudoyberdi To’xtaboyev adabiy ertaklari yosh aqvlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida

kamol topishida, umuminsoniy-ma'naviy va milliy qadryatlarga sodiq bo'lib ulg'ayishida o'ziga xos manba bo'lib xizmat etadi va xalqimizga xos qadryatlarimizdan dunyo bolalarimiz bahramand bo'lishiga yordam beradi.

References:

1. A. Ahronqulov, A. Rahmonqulov. "Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari"-Farg'ona.: 2012,92
2. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz"-Toshkent.: "O'zbekiston", 2017,484
3. Shukurov Nuriddin, Xatamov Narimon va boshqalar. "Adabiyotshunoslikka kirish"-Toshkent.: "O'qituvchi", 1979,229
4. Muhammad Quronov. "Boram baxtli bo'lsin, desangiz..."-Toshkent "Ma'naviyat", 2014,318
5. Xudoyberdi To'xtaboyev, "Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari"-Toshkent.: "Yangi asr avlodi",2019, 91
6. Xudoyberdi To'xtaboyev, "Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari"-Toshkent.: "Yangi asr avlodi", 2019, 91
7. Shukurov Nuriddin, Xatamov Narimon va Boshqalar. "Adabiyotshunoslikka kirish"-Toshkent.: "O'qituvchi", 1979, 229
8. Xudoyberdi To'xtaboyev. "Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari"-Toshkent.: "Yangi asr avlodi", 2019, 91
9. Muhammad Quronov "Boram baxtli bo'lsin, desangiz..."-Toshkent "Ma'naviyat", 2014, 318

INNOVATIVE
ACADEMY